

**O'ZBEKISTONDA O'Z DST 3286:2018 "HALOL" OZIQ-OVQAT
MAHSULOTLARI BO'YICHA UMUMIY QO'LLANMA STANDARTI
ASOSIDA SERTIFIKATLANADIGON MAHSULOTLAR**

*Nabiyev Otobek Andijon mashinasozlik
instituti "Metrologiya, standartlashtirish va
mahsulot sifati menejmenti" yo'nalishi
talabasi*

E-mail: nabiyevotabek65@gmail.com

Tel: +998 93 101 11 80

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Halol" standartini joriy etish samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qilindi. Uumumiyligi ovqatlanish, restoranlar, mehmonxonalar, oshxonalar, kafeteriyalar va bufetlar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish nuqtalari, tayyor mahsulot supermarketlari, novvoyxonalar va qandolat do'konlarining halol joylari, bunday joylarda ishlataladigan xom ashyo materiallari, halol taomlarni tayyorlash, saqlash va iste'molga berish uchun talablarini belgilaydi.

Kalit so'zlar: "Halol" standart, "Halol" sertifikatlashtirish, xizmat ko'rsatish, akkreditatsiya, , SMIIC, O'zbek-Turk Test-Markazi.

Kirish. O'zbekiston «Halol» standartining joriy etilishi mamlakatimizda, uni yangi bosqichga olib chiqish va xalqaro investitsiyalarini jalb qilish imkonini beradi.

Prezidentimizning 2018 yil 12 dekabrdagi "Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida, Standartlar instituti negizida "Halol" standartlari talablari asosida mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish milliy idorasi tashkil etildi.

Ta'kidlash lozimki, idora dastlabki bosqichda faqatgina eksportga chiqariladigan mahsulotlar uchun hamda ziyorat turizmi (mehmonxona va ichidagi umumiyligi ovqatlanish maskani) doirasida faoliyat yuritadi. Keyinchalik esa bu faoliyat ko'lami yanada kengayib boradi. Texnik jihatdan tartibga solish agentligi idora faoliyatini rivojlantirish maqsadida Malayziyaning "Halol" sertifikatlashtirish va akkreditatsiya masalalarida ko'p yillik tajribaga ega "Islom taraqqiyot departamenti" (JAKIM), Indoneziyaning Ulamolar kengashi (MUI), Turkiyaning "Turk standartlari instituti" (TSE), Tailandning Chulalongkorn Universiteti qoshidagi "Halol" ilmiy markazi" kabi xalqaro darajada tan olingen tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik aloqalari yo'lgan qo'yiladi.

O‘zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligini halol sertifikati berish bo‘yicha rasmiy organ sifatidaakkreditatsiyadan o‘tkazish va bu borada Malayziyaning ilg‘or tajribasini joriy etish yuzasidan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari ko’rib chiqilmoqda.

Halol (ya’ni - ruxsat etilgan) tushunchasi – bu «islom dinida ruxsat etilgan va yo‘l qo‘yilgan barcha mahsulotlar» bo‘lsa, «Halol» standartlari esa – mahsulotlarni islom dini talablari bo‘yicha ishlab chiqarish, saqlash, tashish, sotish va tamg‘alash jarayonlariga bo‘lgan talablarni belgilaydi.

«Halal» arab atamasiga nisbatan umumiy metodik ko‘rsatmalar «Kodeks Alimentarius» Komissiyasining 1997 yildagi 22 sessiyasida qabul qilingan. «**Kodeks Alimentarius**»—(lotinchada - ovqat bo‘yicha qonunlar yoki qonunlar to‘plami) yagona shaklda bayon etilgan oziq-ovqat mahsulotlariga standarlarning xalqaro hamjamiyati tomonidan qabul qilingan to‘plamni o‘zida ifodalaydi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, “Halal” standartini joriy etish bo‘yicha Malayziya, Turkiya, BAA, Saudiya Arabiston, Qatar, Indoneziya kabi mamlakatlar ilg‘or hisoblanadi. Bugungi kunda “Halal” belgisi ostida ishlab chiqariladigan mahsulotlarga Yevropa ittifoqi, AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada, Xitoy, Hindiston, Lotin Amerikasi davlatlari, Yangi Zelandiya va Tailand kabi mamlakatlarda ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, dunyoda musulmonlarning ortib borishi (taxminan 1,8 mlrd odam, yer aholisining 24 foizi) «Halol» standarti talablari asosida ishlab chiqariladigan mahsulotlarga talabning oshishini ta’minlaydi.

Ekspertlarning fikricha, 2025 yilda halol mahsulotlarining ulushi dunyoda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning kamida 20 foizini, 2030 yilga borib esa 25 foizini tashkil etadi.

Bugungi kunda, MDH mamlakatlari (Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Qozog‘iston, Qirg‘iziston), Saudiya Arabiston, Birlashgan arab amirliklari, Eron, Iordaniya, Misr, Baxrayn kabi musulmon mamlakatlariga «Halol» belgisi ostida o‘z mahsulotlarini eksportga chiqarib ulgurgan.

Misol uchun: Birgina Birlashgan arab amirliklari 200 dan ortiq davlatlar bilan savdo sotiq ishlarini amalga oshiradi, bunda mahsulotlarni eksport qilish uchun “Xalol” belgisi bilan sertifikatlangan mahsulot talab etiladi.

Halol standartlari talablari asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bozori hajmi 4,0 trillion AQSh dollarini tashkil etadi, shundan:

- Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) mamlakatlariga - 20 foiz;
- Islomiyl bo‘lmagan mamlakatlarga (Evropa Ittifoqi, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Braziliya va b.q.) – 80 foiz.

2018 yil oxiriga kelib halol mahsulotlari bozori hajmi taxminan 6,4 trillion AQSh dollarini tashkil etishi ko‘zda tutilgan.

Misol uchun: Halol turizm - bu jadal rivojlanayotgan soha bo‘lib, uning yillik hajmi 126 mlrd. AQSh dollarini tashkil qiladi, 2020 yilga kelib bu ko‘rsatkich 419 mlrd. AQSh dollarga yetadi.

Halol turizm industriyasi oxirgi vaqtarda jadal sur’atlarda o‘sib bormoqda va mutaxassislar tomonidan bu turizm sohasidagi yangilanish sifatida baholanmoqda.

Jahon sayyoqlik tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, har yili 300-330 million sayyoqlar dunyodagi eng muhim diniy ob’ektlarga tashrif buyurishadi.

O‘zDSt 3286:2018 standarti islom prinsiplariga va sharoitlariga binoan, xalol mahsulotlar va oziq –ovqat mahsulotlarini sotish, tayyorlash, qayta ishlash, tasniflash, qabul qilish, qadoqlash, tamg‘alash, belgilash, tekshirish, ortish –tushirish, yetkazib berish, tarqatish, saqlash va xizmat ko‘rstish (servis) kabi oziq –ovqat tizimining har bir bosqichida rioya qilish uchun zarur bo‘lgan umuiy qoidalarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu standartdagi barcha qoidalalar, xajmi va daromadidan qat’iy nazar oziq – ovqat tizimidagi har bir muassasa uchun umumiyligini xisoblanadi va oziq –ovqat tizimining bir yoki bir necha bosqichlarida ishlaydigan muassasalarga ham tegishlidir. Ushbu standart sertifikatlashtirish uchun taalluqlidir.

O‘zDSt 3286:2018 standarti orqali quyidagi mahsulotlar sertifikatlashtiriladi:

- ✓ go‘sht va go‘sht mahsulatlari;
- ✓ sut va sut mahsulotlari;
- ✓ tuxum va tuxum mahsulotlari;
- ✓ don va don mahsulotlari;
- ✓ o‘simlik va xayvon asosidagi suyuq va qattiq yog‘lar;
- ✓ meva va sabzavotlar, meva va sabzavotlardan mahsulotlar;
- ✓ shakar va shakar mahsulotlari;
- ✓ alkogolsiz ichimliklar;
- ✓ asal va asal mahsulotlari;
- ✓ vitaminga boyitilgan oziq –ovqat mahsulotlari;
- ✓ fermentlar;
- ✓ mikroorganizmlar;
- ✓ qadoqlash uchun materiallar;
- ✓ oziq –ovqat mahsulotlari (ozuqa mahsulotlari) bo‘yicha ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish;
- ✓ baliq va baliq mahsulotlari;
- ✓ suv.

Quyida keltirilgan hayvonlar halol xisoblanadi:

- a) sigir, buqa, qo‘y, echki, tuya, tovuq, o‘rdak, g‘oz, va kurka kabi uy hayvonlari;

b) bug‘u, antilopa, tog‘ echkisi, yovvoyi buqa kabi yovvoyi, lekin yirtqich bo‘lмаган hayvonlar;

v) kabutar, chumchuq, bedana, chug‘urchiq, tuyaqush kabi yovvoyi bo‘lмаган qushlar.

Quyida keltirilgan hayvonlar halol hisoblanmaydi.

a) cho‘chqa, it va ularga turdosh xayvonlar;

b) Alloh ismini tilga olmasdan so‘yilgan hayvonlar;

v) musilmon qoidalariga qarshi so‘yilgan hayvonlar;

g) o‘limtik hayvonlar;

d) ayiq, fil, maymun, bo‘ri, arslon, pantera, mushuk, shoqol, olmaxon, suvsar, krot, latcha, amerika timsohi va timsohga o‘hhash hayvonlar kabi o‘tkir qoziqtishga yoki o‘ljasini o‘ldirish uchun yoki o‘zini ximoya qilish uchun old shoxlarga ega bo‘lgan hayvonlar;

s) qirg‘iy, burgut, qarchig‘ay, jo‘rchi, quzg‘un, yirtqich kabi o‘tkir tirnoqli yirtqich qushlar:

j) sichqon, kalamush, chayon, mingoyoq, ilon yovvoyi asal arilar, hamda boshqa hasharotlar va zaxarli hayvonlar;

z) kaltakesak, shilliq qurt, qo‘ng‘izlar, lichinkalar va boshqa yoqimsiz hayvonlar;

i) islom bo‘yicha o‘ldirish ta’qiqlangan asalari va xud-xud qush kabi hayvonlar;

k) eshak va xachir;

l) ta’qiqlangan (halol bo‘lмаган) ozuqa bilan doimiy va qasddan boqiladigan fermerlik hayvonlari;

Iste’moli taqiqlangan hayvonlardan olinadigan mahsulotlar ham taqiqlangan (halol bo‘lмаган) hisoblanadi.

Dengiz hayvonlari (suvda yashaydigan hayvonlar)

a) tangali baliq turlari, tangali baliqlar uvuldirig‘i (ikrasi) va ulardan tayyorlanadigan mahsulotlar halol hisoblanadi.

b) boshqa barcha dengiz hayvonlari (suvda yashaydigan hayvonlar) halol hisoblanmaydi.

d) Amfibiyalar, Barcha turdag'i amfibiyalar halol hisoblanmaydi.

Adabiyotlar

1. “O’zbekiston Respublikasida 2010 yilga qadar xizmat ko’rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlar haqida”gi O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2007 yil 21 maydagi PQ-640-sonli qarori.

2. Mirziyoyev Sh. Turizm faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida Toshkent sh. 2017 yil 6 aprel, 189-son

3. Mirziyoyev Sh. O’zbekiston Respublikasi prezidentining qarori o‘zbekiston respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil

etish to‘g‘risida(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 49-sod, 559-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2018 y., 07/18/3510/0668-sod)

4. «2006-2010 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi va servisni jadal rivojlantirish haqida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2006 y.

5. Uz DSt 3417:2019 “Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalarida xizmat ko‘rsatadigan xodimlarga doir umumiyl talablar” va Uz DSt 3418:2019

Internet saytlari

1. www.интеруион.ру – турисцкие ассоциации
2. www.ворлд-тоурисм.орг – Всемирная турисцкая организация
3. www.wttc.org – Всемирний Совет по путешествиям и туризму
4. [хттп://www.wto-маркетинг.ру](http://www.wto-маркетинг.ру) – сайт ВТО
5. [хттп://www.тоурисм.уз/](http://www.тоурисм.уз/)